

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: 1701310

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapda yasama so'zni tobelantirgan ibora ishtirok etgan?
 - A) Haqiqiy vatanparvarlar jon kuydirib mehnat qilishdan aslo charchamaydilar.
 - B) Vatanga bo'lgan muhabbatim meni xorijliklar yutug' idan ko'z yumishga majbur qilmaydi.
 - C) O'z vataniga dog' tushirish uni sotish degan so'z.
 - D) Vatanni ko'z qorachig' iday asrashni ma'rifatli millatlardan o'rganish kerak.

2. Taqillaydi eshik nogahon,
 - Kimsan?- Deyman tugab sabotim,
 - Ochgil, -deydi. -Bu—men, qadrdon,
 - Bilmoq bo'lsang-bardoshdir otim.

Ushbu she'riy parchada nechta egasi yashirilgan soda fe'l kesimli gap mayjud?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

3. Qaysi gapda fonetik o'zgarishga uchragan so'z yasama so'zga tobelangan?
 - A) Qulog'ing soz eshitsa agar, Nozik sasga bir dam quloq os.
 - B) Yonib ishqil alangasida, Oy qiladi unga tabassum.
 - C) O'zligim bilmoqqa davrim Berdi imkon, o'zbegin.
 - D) Mening uyg'og' qalbinga ayon, Ne xususda kuylar shalola.

4. **parrak, qo'yin, tuk, bu, bo'g'iz, varaq, obro'**, yuk, ko'ngil, shu

Berilgan so'zlardan nechtafiga egalik qoshimchalar qoshilganda tovush ortishi yuz beradi?

A) 2 B) 4 C) 5 D) 3

5. To'g'ri hukmmi aniqlang.

 - A) ovoz dor undoshlarda shovqin ishtirok etmaydi
 - B) jarangli justi yo'q jarangsiz undoshlar hosil bo'lish o'rniga ko'ra bir guruhga mansub undoshlar sanaladi
 - C) jarangli va jarangsiz juftlik hosil qiluvchi undoshlar shovqinli undoshlarga mansub
 - D) jarangsiz justi yo'q jarangli undoshlar faqat sonor undoshlar guruhiga mansub

6. Berilgan murakkab qoshma gap tarkibidagi sodda gaplarning kesimlarida fe'lning munosabat shakli orqali ifodalangan qaysi grammatik ma'nolar barcha kesimlarda bir xil?

Agar sen go'daklik zamoningda onang sen bilan qanday hayot kechirganini, o'zingning esa osmon bilan yerning farqini bilmaydigan bir chaqaloq bo'lganining bilishni istasang, atrofingdag'i onalarda qara, ularning qo'llaridagi chaqaloqlarga nazar sol, shunda sen o'z go'dakligingni yorqin tasavvur qilasan va o'zing bundan xulosa chiqarib olasan.

A) zamon va shaxs-son ma'nosi
 B) zamon va mayl ma'nosi
 C) mayl va shaxs-son ma'nosi
 D) mayl, shaxs-son va zamon ma'nosi

7. Yam-yashil vohalarga,
 Badiiy lavhalarga,
 She'riy sarlavhalarga,
 Boy ekansas, Farg'on'a.
 Ushbu parcha haqidagi to'g'ri hukmmi toping.

 - A) egasi umumlashgan sodda gap
 - B) murakkab fe'l kesim ishtirok etgan sodda gap
 - C) vositali to'ldiruvchi uyushgan sodda gap
 - D) to'rt o'rinda sifatlovchi aniqlovchi ishtirok etgan

8. Kal ketaverdi, ketaverdi, charchab, suvsab bir daraxt soyasida yotib uxladi. (Ertakdan)
 Ushbu gap tarkibida asosi ham omonimlik, ham paronimlik xususiyatiga ega so'z necha o'rinda qatnashgan?

A) 3 B) 1 C) 2 D) 4

9. Qaysi gapda paronim bilan bog'liq xatolikka yo'l qo'yilgan?
 - A) U sandiqdagi javohirlardan qisimiga sig'gancha oldi.
 - B) Unga ekishga yaroqli yerlarning hisobini olish topshirilgan edi.
 - C) Hirotning a'yonlari yangi podshoga yaxshi ko'renish ilinjida edilar.
 - D) Dushman turli xiyla bilan jangchilarning tinkasini quritmogchi edi.

10. **Tut pishig'ida ko'rishgandik.**
 Berilgan gapda ma'no ko'chishining qaysi turi mayjud?

A) metonimiya B) metafora C) sinekdoxa D) vazifadoshlik

11. Yana tushdi Rus sari yo'limga,
 Eron, sendan ketgummi hali,
 Nahot, seni bot ko'rmas bo'ldimi?
 Ona yurtga mehrim tufayli
 Yana tushdi Rus sari yo'limga.
 She'riy parchada ravish turkumiga oid so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?

A) 2 B) 4 C) 5 D) 3

12. Qaysi gapda kelishik qo'shimchasini ko'makchi bilan almashtirish mumkin?
 - A) Matni kitobdan daftarga ko'chirdim.
 - B) Birdan chehrasidagi quvonch o'rnini hayrat egalladi.
 - C) Hovli suv quyg'andek jimjit.
 - D) Kutubxonachi yangi kitoblardan gapira boshladи.

13. Suydim,
 Erkalandim,
 Ayrlidim,
 Kuydim,
 Izzat nima bildim,
 Shu-da bir yashash!

She'riy parchadagi fe'llar haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.

 - A) ikkita fe'lning yetakchi morfemasi fonetik xodisa asosida yozilgan
 - B) ikkita fe'l sodda yasama hisoblanadi
 - C) ikkita fe'l tarkibida nisbat qo'shimchasi qo'llangan
 - D) faqat o'timli fe'llar ishtirok etgan

14. Taqlid so'z eganining aniqlovchisi vazifasini bajargan gapni aniqlang.
 - A) Jigarim otashga tegardi jiz-jiz, Sochlari oqargan shunda, ehtimol.
 - B) Yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda qo'ng'ir-qo'ng'ir ovozdan uyg'onib ketdim.
 - C) Qirlarning g'ir-g'ir shamoli, o'pkalarga moydek tuyilgan totli havosi hammamizning ruhimizni ko'tarib yubordi.
 - D) Chiqib ketayotganida chol-kampir-pichir-pichir qilayotganini sezdim.

15. Qaysi javobda to'rtta sodda gap ishtirok etgan?
 - A) Osti ham bir, usti ham bir tuproqning, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.
 - B) Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu, Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu.
 - C) Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.
 - D) Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov, Oz yeringni o'zing asra bo'lib dov.

16. Qaysi gapda imloviy xatoga yo'l qo'yilmagan?
 - A) Har bir narsani tejash, bugungini ertaga zahiraga qo'yish - yaxshi fazilat.
 - B) Xayoliga kelgan fikrlarni aytishga xayiqdi.
 - C) Oqilona narx-navo tayin qilinsa, paxta bilan pillaning o'ziyoq jumhuriyatni bemalol boqa oladi.
 - D) Dard hurujidan xoli bo'lganida, Mahmudning ko'ziga qaraboq noxushlik yuz bergenini anglarmidi...

17. O'g'il ham qiz ham albatta uyda ko'chada o'z fe'l muomalasi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak.
 Ushbu gapda tushurib qoldirilgan tinish belgilari haqida to'g'ri fikrni aniqlang.

A) 5 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan
 B) 4 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan
 C) 6 o'rinda vergul tushurib qoldirilgan
 D) 4 o'rinda vergul tushurib qoldirilgan

18. Men sizga beg'ubor yaylov havosida chiniqqan, bir necha bor yirtqich hayvonlar hujumiga yo'lqigan qo'rmasa va kamtar, kamgap va qaysas bir bola haqida hikoya qilmoqchiman.
 Berilgan gapdagi sodda yasama fe'l(lar) qanday gap bo'lak(lar)iga tobelanib kelgan?

A) sifatlovchi aniqlovchiga
 B) vositasiz to'ldiruvchiga va kesimga
 C) vositali to'ldiruvchiga
 D) holga va sifatlovchi aniqlovchiga

19. Agar bu O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixini ulug'lamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak.
 Ushbu gapda faqat hokim qismi yasama so'zdan iborat bo'lgan so'z birikmalari sonini aniqlang.

A) 5 B) 4 C) 3 D) 2

20. Qaysi gapda teng bog'lovchi uyushiq to'diruvchini bog'lamagan?
 A) *Fan - qayiq va kemalar uchun ochiq okeandir: biri unda oltin xirmonlarni to'plasa yig'sa, biri unda mayda baliqlar ovlash bilan band.*
 B) *Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilmni o'rganish lozimdir, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur.*
 C) *Bo'htonchilar, chindan ham, baxtsiz maxluqlarki, o'z g'alabalari natijasida yuzlari battarrog qorayganini va ichlari yana battarrog chirkinlashganini sezmaydilar.*
 D) *Kuchli va olyijanob tabiatililar hamma asrashga qodir bo'lgan haqiqat yordamida yolg'omni zangidek oyogosti qilib tashlaydilar.*
21. Kesim haqidagi to'g'ri hukmlarni aniqlang.
 1) gapning markazi hisoblanadi; 2) barcha bo'laklar unga bevosita bog'lanadi; 3) tasdiq yoki inkor ma'nosini ifodalaydi;
 4) zamon, mayl, shaxs -son ma'nolari bilan shakllanadi
 A) 2, 3, 4 B) 1, 3, 4 C) 1, 4 D) 2, 3
22. Qaysi gap tarkibida fe'llarning munosabat shakli bilan omonim bo'la oladigan sifat yasovchi qo'shimcha qatnashmagan?
 A) *Bolaligimni sirdosh dugonalralr davrasida o'tkazmaganman.*
 B) *Belanchakda yotgan go'dakning o'ksik yig'isi Oysha onaga ta'sir qildi.*
 C) *Qizining doimiyoq ezzin xayollar og'ushida yurganini ko'rib, uning bir dardiga o'n dard qo'shildi.*
 D) *Rahimjon korxona xodimlarining e'tiborsizliklari tusayli yuzaga kelgan qatroy jiddiy muammolar haqida gapirdi.*
23. Atamashunoslik so'zi tarkibidagi ikkinchi ko'makchi morfema qaysi so'z turkumini yasash xizmat qilgan?
 A) *sifat* B) *fe'l* C) *ravish* D) *ot*
24. Berilgan she'riy parchada yasama so'zlar necha o'rinda ishtirok etgan?
 Mulki borliq ichra bir mahal,
 Ko'rkgaminga olam yaralgan.
 Bermoq uchun dunyoga sayqal,
 Olam aro odam yaralgan.
 A) 5 B) 4 C) 3 D) 2
25. Quyidagi qaysi asar she'riy roman hisoblanmaydi?
 A) "Surat" (Mirtemir)
 B) "Yevgeniy Onegin" (Pushkin)
 C) "Ziyod va Adiba" (Mirmuhsin)
 D) "Don Juan" (Bayron)
26. "Nevara" nomli doston yaratgan adibni belgilang.
 A) *Shuhrat* B) *E. Vohidov* C) *Mirmuhsin* D) *R. Hamzatov*
27. Qaysi adib ikki davlat madhiyalarining so'zini yozgan?
 A) *J.London* B) *E.Seton – Tompson* C) *H.Hayne* D) *R.Thakur*
28. Ozod Sharafiddinov hayoti va ijodiga tegishli bo'lмаган ма'lumotni toping.
 A) "Jahon adabiyoti" jurnalining 100ta sonini tayyorlab ulgurgan.
 B) O'zbek adabiyotshunosligida ko'p tilga olinadigan "shafqatsiz realizm" ko'rinishlarini o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek romanchiligiga olib kigan .
 C) Cho'lpon, Fitrat singari ijodkorlar haqida yozgan maqolalari katta shov-shuvga sabab bo'lgan.
 D) "Zaharxanda qahqaha", "Bir tilda gaplashaylik", "She'r ko'p, ammo shoir-chi?" maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og'izga tushgan, munozara mavzusiga aylangan.
29. Zavqiy hayotiga oid ma'lumot berilgan javobni belgilang.
 A) *Chimyonda maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug'ullangan.*
 B) *Onasi Oyshabibi o'g'lida adabiyotga nisbatan ilk havaslarni uyg'otgan.*
 C) *Shoirning o'z o'g'li qo'li bilan tuzgan devoni uning vafotidan so'ng turmush o'rtoq'i Xayrunniso tomonidan Qashqarga olib ketilgan.*
 D) *Otasi Akmal taxallssi bilan ijod qilgan.*
30. Davlat qo'nsa bir chibinning boshig'a,
 Semurg' qushlar salom berar qoshig'a...
 Ushbu bayt xalq dostonlaridagi qaysi qahramon tilidan aytilgan?
 A) *Alpomish* B) *Boysari* C) *Kuntug'mish* D) *Boybo'ri*
31. Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida Sodiqni maktabdagi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olishda ayblagan adabiy qahramonni aniqlang.
 A) *Mirsalim* B) *Sa'dullayev* C) *Shukurov* D) *M. Abdurahmonova*
32. Shoira Anbar Otin qaysi mashhur mumtoz shoiramizning jiyani bo'lgan?
 A) *Maknuna* B) *Dilshodi Barno* C) *Nodirabegim* D) *Jahon otin Uvaysiy*
33. "Bir kun yilonlar jam bo'lib aydilar: bizlar laklak bilan murosa qilib qismat qilolir har kunda bir yilonni oning xo'rakiga berali, o'zgamizga zahmat bermasun. Barchalari aydilar: andoq bo 'Isun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar". Laylak va ilonlar haqidagi hikoyatdan olingen ushbu parcha. qaysi asarda, keltirilgan?
 A) "Guliston" (Sa'diy Sheroziy)
 B) "Guliston bit-turkiy" (Sayfi Saroyi)
 C) "Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)
 D) "Miftoh ul-adl" (Poshshoxo'ja Abdulvahobxoja o'g'li Xoja.)
34. Qaysi asar Alisher Navoiyning falsafiy qasidasi hisoblanadi?
 A) "Tuhfatul-afkor" B) "Sab'at-u abhur" C) "Munshaot" D) "Nasoyim ul-muhabbat"
35. Qaysi dramatik asarda "Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar", - deya xushomadgo'yligi evaziga chopon kiygan obraz uchraydi?
 A) "Mehrobdan chayon" B) "Advokatlik osonmi?" C) "Abulfayzon" D) "Sohibqiron"
36. Radif haqidagi quyidagi qaysi ma'lumot noto'g'ri?
 A) *Radif qisqa va yoyiq bo'lishi mumkin.*
 B) *Ko'pincha baytdagi fikrning asosiy yuki radif zimmasiga tushadi.*
 C) *Radif qofsiya bilan yonma-yon, birga, unga ergashib keladi.*
 D) "Radif" atamasи fors tilidan olingen.

BIOLOGIYA

37. Qora tanali, normal qanotli(otasi kalta qanotli) oq ko'zli urg'ochi drozofila pashshasi qanday tipdagи gametalarni hosil qilishi mumkin?
 A) *aBX^d, aBX^D*
 B) *abX^d, abX^d*
 C) *ABX^d, abX^d*
 D) *abX^d, abX^D*
38. Makkajo'xorida barglarning burishganligi va poyaning past bo'lishi retsessiv belgilari hisoblanib, bitta xromosomada joylashgan. Barglari silliq va normal uzunlikdagi o'simlik barglari burishgan past bo'lyi o'simlik bilan chatishtilrilib 1200 ta o'simlik olindi. Shundan 216 ta organizm ota-onaning ayrim belgilarni o'zida mujassamlashtirilgan. Retsessiv belgiga ega bo'lgan organizmlar sonini aniqlang.
 A) 492 B) 984 C) 600 D) 108
39. Odamda gipercolesterinuriya dominant belgi sifatida autosomadagi genlar ishtirokida irlsylanadi. Gomozigotalilarda kasallik ateroskleroz va terida xavfsiz o'simtalar paydo bo'lishi bilan kechadi. Geterozigotalilarda kasallik yengil o'tib, faqatgina qonda xolesterin miqdorining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi. Gipercolesterinuriyaning yengil formasи bilan kasallangan ayol o'ziga o'xshash va gipertrixoz bilan kasallangan erkakka turmushga chiqdi. Farzandlarning gipertrixoz bilan tug'ilish ehtimolligini (%) aniqlang.
 A) 25 B) 100 C) 75 D) 50
40. Xromosoma ayrim bo'lagining 180° ga burilishi (a) va DNK bo'lagi genomning ma'lum joylarga kirishi (b) qanday nomlanadi?
 A) *a-insersiya; b-inversiya*
 B) *a-inversiya; b-insersiya*
 C) *a-deletsiya; b-duplikatsiya*
 D) *a-insersiya; b-ekssiziya*
41. Mitoxondriyalarda ATF sintezi... sodir bo'ladi.
 1) aerob sharoitda; 2) kislород ajralishi bilan; 3) glyukozaning parchalanishi hisobiga; 4) sut kislötaning hosil bo'lishi bilan; 5) CO₂ ajralishi bilan; 6) sut kislötaning parchalanishi hisobiga; 7) CO₂ ning sarf bo'lishi bilan
 A) 3,5 B) 1,2,3 C) 2,4,7 D) 5,6
42. Shimpanze zigotasining birinchi marta ekvatorial bo'linishidan hosil bo'lgan blastomerlarda necha juft autosomalar bo'ladi?
 A) 184 B) 368 C) 192 D) 288
43. Qaysi javobda o'simliklar sistematikasi katta sistematik guruhdan kichik sistematik guruhga qarab to'g'ri ketma-ketlikda ko'rsatilgan?
 1) qoqio'tdoshlari; 2) qora jusan; 3) magnoliyasimonlar; 4) ikki

- urug' pallalilar; 5) shuvog; 6) magnoliyatoifalar; 7) yopiq urug'lilar; 8) ziradoshlar; 9) ermon shuvog'i
A) 6,3,1,9,5 B) 5,2,8,4,7 C) 7,4,8,9,5 D) 6,4,1,5,2
44. To'g'ri ma'lumotni aniqlang.
 A) Makkajo'xori o'simligida 3- va 5-juft xromosomalar tarqalmay bitta qutbga to'planishi natijasida moyoz I yakunida 19 yoki 21 ta xromosomali hujayralar hosil bo'ladi
 B) Qalampir hujayrasida to'rt juft gomologik xromosomalar faqat bitta qutbga to'plansa, 45 yoki 51 ta xromosomali to'plan hosil bo'ladi
 C) No'xat o'simligida 2- va 5-juft xromosomalar tarqalmay bir qutbga to'planishi natijasida moyoz I yakunida hujayrada 11 yoki 15 ta xromosoma bo'ladi
 D) Bug'doy o'simligi hujayrasida 4-juft xromosomada inversiya yuz berganda 14 ta xromosoma bo'ladi
45. Paleozoy (a) va mezozoy (b) eralariga xos biologik progresslarni aniqlang.
 1) qushlarni issiqxonilik; 2) urug'li o'simliklarda chang yo'li va urug; 3) hasharotlarda qanon; 4) stegosefallarda besh barmoqli oyoqlar; 5) sutemizuvchilarda to'rt kamerali yurak; 6) sudralib yuruvchilarda qalin po'choq bilan qoplangan tuxum
 A) a-3,4; b-1,2
 B) a-2,6; b-1,5
 C) a-3,4; b-5,6
 D) a-1,3; b-2,5
46. Organizm (a) va biogeotsenozi (b) darajadagi hodisalarini aniqlang.
 1) gomologik xromosomalar orasida konyugatsiya jarayoni; 2) kapalak qurtining metamorfozi; 3) genlar dreyfi; 4) translokatsiya; 5) lishaynikda suvo't va zamburug'ning o'zaro munosabati; 6) qirg'ovulning kenja turning paydo bo'lishi; 7) yaylovda o'suvchi o'simliklar va o'txo'r hayvonlarning o'zaro munosabati
 A) a-3,4; b-7 B) a-2,6; b-3 C) a-2,5; b-2 D) a-1,2; b-3,5
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 A) odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi
 B) hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi
 C) qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi
 D) tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsitlarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminoz rivojlanishi
48. Komplementar irlsiyanishda epistaz irlsiyanish kabi ...
 1) allel bo'luman genlarning o'zaro ta'siri kuzatiladi; 2) digeterozigota duragylarning avlodida 9 xil genotipik sinf hosil bo'ladi; 3) belgina rivojlanishi dominant genlar soniga bog'liq bo'ladi; 4) bir gen belgiga bevosita ta'sir qilsa, ikinchisi bilvosita ta'sir qiladi
 A) 3,4 B) 2,3 C) 1,2 D) 1,4
49. Vegetativ nerv sistemasi bo'limlari va ularning boshqaradigan jarayonlar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.
 a) orqa miya; b) uzunchoq miya;
 1) sistolani tezlashtiradi; 2) sistolani sekinlashtiradi;
 3) oshqozonda shira ajralishimi tezlashtiradi; 4) qovuq muskullarini bo'shashtiradi; 5) oshqozon muskullari harakatini susaytiradi
 A) a-1,3; b-2,4
 B) a-4,5; b-2,3
 C) a-1,4; b-2,5
 D) a-3,4; b-2,5
50. Qaysi kasalliklar nafas olish organlari kasalliklari emas?
 1) rinit; 2) faringit; 3) traxeit; 4) piyelonefrit; 5) botulizm; 6) ateroskreroz; 7) zotiljam; 8) laringit
 A) 4,5,6
 B) 1,2,3
 C) 4,7,8
 D) 4,5,7
51. Odamdag'i o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
 1) vegetativ nerv sistemi orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhg'a kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhg'a kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'ning harakatida ishtirok etadi
- A) 1,4,5 B) 1,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Odamning bosh miyasiga xos bo'luman ma'lumotni aniqlang.
 A) Bosh miya katta yarimsharlarning sezish zonasini hujayralari sezgi organlaridan kelayotgan impulslarini qabul qiluvchi oly nerv markazi hisoblanadi
 B) Bosh miyaning stvol qismidagi nerv hujayralari shartsiz reflekslarning nerv markazi hisoblanadi
 C) Bosh miya shikastlanganda qo'l-oyoq tonusi pasayib, salajlangan oyoq harakatsiz osilib qoladi
 D) Uzunchoq miyadan chiquvchi adashgan nerv tolassi parasimpatik nerv sistemasing bir qismi bo'lib, qorin bo'shilg'ining yuqori qismida joylashgan organlar ishini boshqaradi
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
 A) Terining derma qavatida sovuqni va siyapalashni sezuvchi retseptorlar issiqni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.
 B) Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining ortib ketishi tufayli yuzaga keladi.
 C) Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida perilimfa, parda labirinti ichida endolimfa suyuqligi bo'ladi.
 D) Harakat analizatorining oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining orqa markaziy egatida joylashgan.
54. Qaysi hasharotlar metamorfoz jarayonida og'iz a'zolari o'zgaradi?
 1) chigirtka; 2) bronza qo'ng'izi; 3) ninachi; 4) to'shak qandalasi; 5) podalarli; 6) tovusko'z; 7) olma mevaxo'ri
 A) 6,7 B) 1,2 C) 3,4 D) 1,5
55. Butli o'rgimchak oyoq paypaslagichlariga xos xususiyatlarni aniqlang.
 1) xitin po'st bilan qoplannagan; 2) pastki jag'lar vazifasini bajaradi; 3) sezgir tukchalar bilan qoplangan; 4) yurishda ishtirok etadi; 5) yurish oyoqlariga nisbatan kalta; 6) tuyg'u organi hisoblanadi
 A) 2,3,6 B) 4,5 C) 1,3,5 D) 1,4
56. Alligator bilan bir sinfd'a (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
 A) a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr
 B) a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon
 C) a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha
 D) a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara; b-muflon, g'izol, bizon
57. Jag'larida kurak, qoziq va oziq tishlari mavjud hayvonlarni aniqlang.
 1) latcha; 2) ondatra; 3) norka; 4) qashqaldoq; 5) nutriya; 6) tovushqon; 7) sug'ur; 8) tiyin; 9) yumronqoziq; 10) olaqo'zan
 A) 1,3,10 B) 2,5,7 C) 4,9,10 D) 6,7,8
58. Yirtqich umurtqali (a) va o'txo'r umurtqasiz (b) hayvonlarni aniqlang.
 1) kojan; 2) zlatka; 3) aureliya; 4) tipratikon; 5) ko'l baqasi; 6) tillako'z; 7) suvilon; 8) termit; 9) hasva qandalasi; 10) bizon
 A) a-5,7; b-2,6
 B) a-1,10; b-6,9
 C) a-4,5; b-2,8
 D) a-1,7; b-3,6
59. Geterotrof oziqlanish xususiyatiga ega prokariot (a) va eukariot (b) organizmlarni aniqlang.
 1) ossillatoriya; 2) temir bakteriyalari; 3) pichan bakteriyasi; 4) shumg'iya; 5) rafleziya; 6) kalina; 7) midiya; 8) giatsint; 9) parpi
 A) a-1,2; b-5,6,7
 B) a-2,3; b-6,7,8
 C) a-2,3; b-4,5,6
 D) a-3; b-6,8,9
60. Nukleoproteinlari yadro va sitoplazmada (a), faqat sitoplazmada (b) joylashgan organizmlarni juftlab ko'sratising.
 1) herpes; 2) exinokokk; 3) batsilla; 4) achitqi; 5) ossillatoriya; 6) xlorella; 7) xrokokk; 8) batsidiya; 9) bakteriofag; 10) OITV
 A) a-1,9,7; b-4,6
 B) a-4,6,8; b-3,5
 C) a-3,7; b-2,6
 D) a-3,10; b-4,6
61. Orangutan somatik hujayrasida sodir bo'ladijan mitoz jarayoni haqida to'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
 1) metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 2) anafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 96 ta; 3) profazada ikki xromatidali autosomalar soni 46 ta; 4) anafazada xromosomalar soni 96 ta; 5)

- metafazada ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta; 6) interfaza G₂ davrida ikki xromatidali xromosomalar soni 48 ta
A) 1,6 B) 4,5 C) 2,3 D) 2,5
62. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) tamaki; 2) sabzi; 3) arpa; 4) sholi; 5) ananas; 6) banan; 7) oshqovoq; 8) kartoshka
A) 2,6,8 B) 1,5,8 C) 2,4,7 D) 1,3,6
63. HaeIII restriktazasi uchun xos belgilarni ko'rsating.
A) *to'rtta nukleotid juftligini taniydi, tarkibi bo'yicha transpazonga o'xshaydi*
B) *peptid bog'mayjud, to'rtta nukleotid juftligini taniydi*
C) *vodorod bog'mayjud, tarkibi transpazon bilan o'xshash*
D) *DNKni yopishqoq uchlar hosil qilib kesadi, peptid bog'larni uzadi*
64. Yeryong'oqning bargi (a), guli (b) va mevasi (c) qanday tuzilgan?
A) *a-juft patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkan meva*
B) *a-juft patsimon, yonbargchasisz; b-sariq rangda, c-quruq, qo'zoq meva*
C) *a-juft patsimon, yonbargchali; b-qiyishq gul; c-quruq meva, pallalari orasida to'sig'i yo'q*
D) *a-toq patsimon, yonbargchali; b-sariq rangda, to'g'ri gul; c-quruq, dukkan meva, pallalari orasida to'sig'i bor*
65. Nastarin qaysi jihatlari bilan tokka o'xshaydi?
1) urug'lanishdan so'ng meva hosil qilishi; 2) gullarning qiyshiqligi; 3) ro'vak to'pgul hosil qilishi; 4) barglarining novdada joylashuvni;
5) hayotiy shakli; 6) gulpojasining shoxlanishi
A) 1,3 B) 2,5 C) 4,6 D) 4,5
66. Karamdoshlar oilasi vakillarining ra'nodoshlar oilasi vakillaridan farqlarini toping.
1) gulqo'rg'oni murakkab, a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilari ikkita halqada joylashgan; 6) bargalari doim oddiy; 7) bargalari poyada ketma-ket joylashgan
A) 1,2 B) 3,4,7 C) 2,3,6 D) 5,6
67. Qaysi o'simlikning bargi oddiy yonbargchali (a) va murakkab yonbargchali (b) bo'ladi?
1) yantoq; 2) tok; 3) g'o'za; 4) partenotsissus; 5) burchoq; 6) liftok;
7) shirinmiya; 8) olma
A) a-6,8; b-1,5,7
B) a-1,2; b-4,5,7
C) a-2,3,8; b-1,4,5,7
D) a-2,4,6; b-5,7
68. Evernia haqidagi noto'g'ri ma'lumotni toping.
A) atmosfera havosi tozaligini ko'rsatuvchi mezon
B) tuproq hosil bo'lishiда ishtirok etadi
C) poyasida xitin moddasi uchraydi
D) zamburug' bilan bir hujayrali suvo'tining simbiozi
69. Itsigak (a) va isirg'aot (b) ga xos bo'lgan belgilarni ajrating.
1) gultojibarglarning 2 tasi qo'shilgan, 3 tasi erkin; 2) barglari oddiy yonbargsiz; 3) avtoxor o'simlik; 4) gulqo'rg'oni oddiy, tojbargsimon; 5) barglari yonbargchali; 6) sho'radoshlar oilasiga mansub; 7) dukkakdoshlar oilasiga mansub; 8) gulqo'rg'oni oddiy kosachasimon
A) a-2, 4, 6; b-1, 3, 7
B) a-1, 3, 7; b-2, 4, 6
C) a-1, 3, 5; b-2, 6, 8
D) a-2, 6, 8; b-1, 5, 7
70. Qirg'ovullarning yettisoy, murg'ob, yapon kabi kenja turlarining paydo bo'lishi (a), tur doirasida yangi populyatsiyalarning paydo bo'lishi (b) qanday jarayonlarni aks ettiradi?
A) a-divergensiya; b-konvergensiya
B) a-mikroevolyutsiya; b-mikroevolyutsiya
C) a-mikroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya
D) a-makroevolyutsiya; b-makroevolyutsiya
71. Quyida keltirilgan madaniy o'simliklar orasidan bitta markazdan kelib chiqqan o'simliklarni aniqlang.
1) makkajo'xori; 2) ananas; 3) g'o'za; 4) tamaki; 5) zig'ir; 6) karam; 7) loviya; 8) suli
A) 2,7,8 B) 1,5,8 C) 2,4,6 D) 1,3,7
72. Paleoarktik biogeografik viloyatiga mansub tuyoqli sutemizuvchi hayvonlarni aniqlang.
1) zubr; 2) mufton; 3) sayg'oq; 4) koala; 5) maral; 6) kanna; 7) kabarga; 8) tog' kiyigi; 9) muskusli qo'y; 10) qunduz
A) 1,4,7 B) 3,5,8 C) 2,6,9 D) 2,5,10
- KIMYO**
73. Polimerlanish darajasi 400 ga teng bo'lgan poliakrilamid molekulasi da karbonil guruuhlar soni nechta?
A) 600 B) 400 C) 1200 D) 800
74. Propantriol-1,2,3 molekulasi tarkibidagi uglerod atomlarining oksidlanish darajasi yig'indisini toping.
A) -5 B) -3 C) -4 D) -2
75. Quyidagi galogenlar qatorida qaytaruvchanlik xossasi qanday o'zgaradi? Br₂→Cl₂→I₂→F₂ a) ortadi; b) kamayadi
A) 1-b; 2-b; 3-a B) 1-b; 2-a; 3-b C) 1-a; 2-a; 3-a D) 1-b; 2-b; 3-b
76. DNK qo'sh spirali tarkibidagi nukleotidlarda 9600 ta uglerod atomi bor bo'lsa, nukleotid tarkibida nechta sitozin bor? (nukleotidlarning 20% ini guanin tashkil etadi)
A) 300 B) 200 C) 500 D) 400
77. Qaysi aminokislota qizdirilganda akril kislota hosil boladi?
A) *β-aminopropan kislota*
B) *β-aminobutan kislota*
C) *a-aminopentan kislota*
D) *a-aminobutan kislota*
78. 59 g R-CCl₃ tarkibli gemigaloid uglevodorod suv bilan gidrolizlanganda 29,6 g karbon kislota olindi. Olingan karbon kislotani aniqlang.
A) *sirka kislota*
B) *chumoli kislota*
C) *propion kislota*
D) *moy kislota*
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 8,96 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Boshlang'ich aralashma 200 g NaOH eritmasi (NaOH ning foiz konsentratsiyasi suvnikidan 84% ga kam) bilan reaksiyaga kirisha oladi. Xuddi shunday boshlang'ich aralashma bromli suvdan o'tkazilganda 66,2 g cho'kma tushishi ma'lum bo'lsa, dastlabki aralashmadagi propanol massasini (g) aniqlang.
A) 12 B) 48 C) 24 D) 60
80. ³⁹Cr va ⁵⁷Fe atomlari o'zarbo'lsa, x va y uchun quyidagi munosabatlardan qaysi biri o'rini hisoblanadi?
A) $y=x$ B) $y=x+2$ C) $x=y+2$ D) $x=y+1$
81. Qirralari n=2 sm bo'lган kub shaklidagi aluminiy metali ($p=2,7 \text{ g/sm}^3$) ishqor eritmasida eritilganda qancha (litr.n.sh.) gaz hosil bo'ladi?
A) 11,2 B) 4,48 C) 13,44 D) 26,88
82. 28,8 g furfuoldan necha gramm furan olish mumkin? ($\eta=0,75$)
A) 15,3 B) 47,6 C) 27,2 D) 20,4
83. Tarkibida 1 ta sp^3-sp^2 bog' va 16 sp^3 gibrid orbital tutgan benzol gomolog(lari) nitrolanganda necha turdag'i mononitrobirkma hosil bo'ladi? (yon zanjirning nitrolanishi hisobga olinmasin)
A) 6 B) 4 C) 10 D) 8
84. Mol nisbatlari mos ravishda 1:2:3 bo'lган buten-1, butin-1 va butandan iborat aralashma 5 kg bromli suvni rangsizlantiradi. Agar eritmadagi bromning massasi suvning massasidan 24 martta kichik bo'lsa, reksiya uchun olingan butan massasini (g) aniqlang.
A) 14,5 B) 43,5 C) 11,6 D) 58
85. Pirit bu-...
A) temir (II) sulfid
B) temir disulfid
C) tritemir tetraoksid
D) temir (II) sulfat
86. Benzil radikal tarkibidagi proton, neytron va elektronlar soni keltirilgan qatorni belgilang.

- A) 49; 42; 50
B) 49; 42; 48
C) 50; 6; 49
D) 49; 42; 49
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 25% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmisi tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 5/9; 1/3
B) 3/10; 3/10; 2/5
C) 1/6; 1/2; 1/3
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. Valent elektronining kvant sonlari $n=4$; $l=0$; $m_s=+1/2$ bo'lgan metallning oksidi va karbonatli tuzi mo'l miqdordagi xlorid kislotada eritilganda 4,48 litr (n.sh.) gaz hosil bo'lgan bo'lsa, reaksiyadan so'ng hosil bo'lgan tuzning massasini (g) aniqlang.
(Reaksiya uchun olingan oksid va karbonatli tuzning mol miqdorlari teng)
A) 30,6 B) 25,3 C) 59,6 D) 43,4
89. Mis (II) sulfat kristallogidrati tarkibida kislorodning massa ulushi vodorodnikidan 16 marta katta bo'lsa, bir mol tuzga necha mol suv to'g'ri keladi?
A) 4 B) 2 C) 3 D) 1
90. MeBr_2 tuzi o'z atomlari sonidan 7,5 marta ko'p atom tutgan suvda eritilganda bromid anionining massa ulushi $5/8$ ga teng bo'ldi. Metallni aniqlang. ($a=1$, gidroliz jarayoni hisobga olmang)
A) Mg B) Ba C) Ca D) Zn
91. $2\text{A}+\text{x}\text{B} \rightarrow 2\text{C}$ reaksiyasida $0,04 \cdot 10^2$ mol A moddaning 50% sarflangan, B ning 50% ortib qolgan. Jarayon 1 litrli idishda olib borilgan bo'lsa, x ni toping. ($K_m=1$)
A) 1 B) 4 C) 2 D) 5
92. 20 g mis (II) sulfat 80 g suvda eritilib olingan eritmaning konentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 10 B) 40 C) 20 D) 25
93. Tarkibida noma'lum modda saqlangan 120 g eritmaning molyarligi va molyalligi 5 ga teng bo'lsa, eritmaning foiz konentratsiyasini (%) aniqlang. ($\rho=1,2 \text{ g/ml}$ deb hisoblansin)
A) 100/2 B) 100/3 C) 100/6 D) 100/4
94. Nitrat kislotaning 30% li va 40% li eritmalar bo'lib, 30% li eritmadiagi kislota massasi 40% li eritmadiagi suv massasidan ikki marta katta bo'lsa, ushbu eritmalar aralashtirilganda hosil bo'ladigan eritma konentratsiyasini (%) aniqlang.
A) 26 B) 32 C) 44 D) 38
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^2 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pOH qiymatini toping.
A) 4 B) 9 C) 5 D) 8
96. Ortofosfat kislotada eritmasida quydagi ionlarni ularning miqdorini ortib borish tartibida joylashtiring.
1) H_3O^+ ; 2) PO_4^{2-} ; 3) HPO_4^{2-} ; 4) H_2PO_4^-
A) 2,3,4,1 B) 1,4,2,3 C) 3,2,1,4 D) 1,4,3,2
97. Oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida 33,4 g xlorat ionlari $2,4 \cdot \text{N}_A$ dona elektron biriktirib oldi. Qaytarilish mahsulotini toping.
A) Cl^{-1}
B) ClO_4^-
C) ClO_2^-
D) Cl_2^0
98. Tarkibida 68 g AgNO_3 , 34 g NaNO_3 , 48 g CuSO_4 bo'lgan eritmalar solingen elektrolizyorlar tok manbaiga ketma-ket ulangan. Eritmalar 6,7 A tok yordamida 2 soat davomida elektroliz qilingan bo'lsa, katodlarda (inert elektrod) ajralgan moddalar massasini (g) mos ravishda aniqlang.
A) 43,2; 0,5; 9,6
B) 43,2; 0,5; 12,9
C) 43,3; 0,5; 9,8
D) 43,3; 0,5; 16
99. 46,4 g noma'lum metal qo'sh oksidi H_2 yordamida qaytarilganda 14,4 g suv hosil bo'ldi. Metallni toping.
- A) Co B) Mn C) Fe D) Pb
100. Bertole tuzi va kaliy nitratdan iborat 0,3 mol aralashma katalizator ishtiokida qizdirilganda olingan kislorod mis naychanan o'tkazildi. Bunda mis naychaning 40% i oksidlandi. Olingan nay 200 g 98% li sulfat kislota to'liq erisa, boshlang'ich aralashmadagi kaliy xlorat massasini (g) aniqlang.
A) 4,9 B) 7,55 C) 24,5 D) 12,25
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, kadmiyning massasini (g) hisoblang.
A) 22,4 B) 11,2 C) 28 D) 16,8
102. MeSO_4 ning 160 g 10%li to'yingan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadar sovutildi. Natijada 13,9 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7 \text{ H}_2\text{O}$ cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103. $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$ ifodada x, y, z koeffitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 2:1:1:1 bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 50 B) 53 C) 170 D) 85
104. Uchta bir xil kolbaning birinchisi havo bilan to'ldirilganda 214,5 g, ikkinchisi C_2H_2 bilan to'ldirilganda 213 g keldi. 3- kolba esa teng hajmda CO_2 va X gaz bilan to'ldirilganda 211,5 g ga teng bo'ldi. X gazni aniqlang.
A) Ne B) H_2 C) He D) NH_3
105. Ikki valentli metall bo'lagi xona haroratida xlorid kislotani 54,6 g 10 molyalli eritmasidagi HCl tugaguncha eritilganda H_2 gazi ajraldi va MeCl_2 ning 32,2% li eritmasi hosil bo'ldi. Hosil bo'lgan MeCl_2 eritmasi massasini (g) aniqlang. (Metall suv bilan reaksiyaga kirishmaydi deb hisoblansin)
A) 71 B) 66 C) 59 D) 46
106. Quydagi tuzlar gidrolizga uchraganda neytral muhit hosil qiladiganlarini ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{CO}_3$; 2) K_2SO_4 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2, 6 B) 1, 4, 5 C) 1, 3, 4 D) 1, 3
107. Molekulyar massasi (m.a.b) 2 ta azot molekulasi massasiga teng bo'lgan alkenni aniqlang.
A) buten B) etilen C) penten D) propen
108. Metan quyosh nuri ta'sirida xlorlansa, reaksiya portlash bilan borib, 18 g qattiq modda hosil bo'ladi. Reaksiya uchun kerak bo'ladiyan xlor hajmini (litr, $t=0^\circ\text{C}$, 101,325 kPa) hisoblang.
A) 67,2 B) 56 C) 44,8 D) 89,6